

Abdullayeva Barno Boqijon qizi

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Namangan viloyat Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi huzuridagi

To'ra qo'rg'on 1-son kasb-hunar maktabi davlat va huquq asoslari fani o'qituvchisi.

JAMIYAT HAYOTIDA INSON HUQUQLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada inson huquqlarini himoya qilish mexanizmi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquqlarini himoya qilish shart sharoitlari, inson huquqlari va qadr qimmatining oliy ne'mat ekanligi, inson huquqlarini himoya qilishda mamlakatimizda amalga oshirilgan islohotlar batafsil bayon etilgan.

Kalit so'zlar: huquq, inson huquqlari, huquqiy shakl, huquqiy shaklning turlari.

Аннотация. В данной статье подробно описан механизм защиты прав человека, предпосылки защиты прав человека в Конституции Республики Узбекистан, тот факт, что права и достоинство человека являются высшим благом, а также реформы, реализованные в нашей стране в защита прав человека.

Ключевые слова: право, права человека, правовая форма, виды правовой формы.

Abstract. This article describes in detail the mechanism of protection of human rights, the prerequisites for the protection of human rights in the Constitution of the Republic of Uzbekistan, the fact that human rights and dignity are the highest blessing, and the reforms implemented in our country in the protection of human rights.

Key words: law, human rights, legal form, types of legal form.

KIRISH

Inson huquqlari – bu insonning tug'ilishidan to vafot etguniga qadar butun umri davomida unga hamrohlik qiladigan huquq va erkinliklardir. Ushbu universal huquqlar millati, jinsi, irqi yoki etnik kelib chiqishi, rangi, dini, tili yoki boshqa huquqiy maqomidan qat'i nazar, hech qanday kamsitishlarsiz barcha uchun xosdir. Inson huquqlari yashash huquqi kabi eng asosiy huquqlardan tortib, munosib turmush tarzini ta'minlashga xizmat qiladigan ta'lim olish, mehnat qilish yoki ijtimoiy ta'minot olish kabi huquqlariga qadar barcha huquqlarni qamrab oladi.

Inson huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'ladi. Inson huquqlari munosib hayot kechirish va insoniy salohiyatimizni rivojlantirishga imkon berish uchun zarur bo'lgan barcha insoniy fazilatlar uchun muhimdir. Inson huquqlarini ta'minlash qo'rquv, ta'qib yoki kamsitishsiz jamiyatda yashash uchun katta ahamiyatga ega.

Inson huquqlari quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

Universallik – barcha bir xil darajada inson huquqlariga ega;

Ajralmaslik – ularni hech qachon tortib olish mumkin emas, lekin ba'zida ularni cheklash mumkin — masalan, agar shaxs qonunni buzsa yoki davlat xavfsizligi masalalari uchun;

Bo'linmaslik – ma'lum bir huquqlar to'plamidan ikkinchisiz to'liq foydalanish mumkin emas;

O'zaro bog'liqlik – ma'lum bir huquqni berish yoki uni buzish boshqa huquqlarga ta'sir qilishi mumkin;

Tenglik – barcha insonlar o‘zlarining qadr-qimmati va huquqlarida tengdir;

Kamsitmaslik – har bir inson irqi, tanasining rangi, jinsi, tili va boshqa xususiyatlaridan qat’i nazar inson huquqlariga ega.¹

1948-yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi ommaviy himoya qilinadigan asosiy inson huquqlarini belgilaydigan birinchi yuridik hujjat bo‘ldi. Deklaratsiya va ikkita pakt — Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt (1966) va Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt (1966) bilan birgalikda Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro billni tashkil etadi.

Insonning asosiy huquq va erkinliklari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining Ikkinchi bo‘limida bayon etilgan. Yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ikkinchi bo‘limi V-XI- boblarida inson huquqlari, fuqarolik, shaxsiy huquq va erkinliklar, siyosiy huquqlar, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va ekologik huquqlari, inson hamda fuqaroning huquq va erkinliklari kafolatlari va fuqarolarning burchlari belgilab qo‘yilgan. Konstitutsiyasining

19-moddasida aytilishicha O‘zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e’tirof etiladi va kafolatlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

Insonning o‘z erkinliklari, huquqlari va manfaatlari uchun davom etgan uzoq kurashi umuminsoniy ahamiyat darajasiga ko‘tarilgan quyidagi me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda o‘zining moddiy ifodasini topgan:

- Erkinlikning buyuk xartiyasi (1215-yil);
- Huquq to‘g‘risidagi petitsiya (1628-yil);
- „Habea Cozpus AKT“ (1679-yil);
- Huquqlar to‘g‘risidagi bill (1689-yil);
- Amerika Virginiyasi huquqlari Deklaratsiyasi (1776-yil);
- Amerika Qo‘shma Shtatlarining mustaqillik Deklaratsiyasi (1776-yil);
- Fransuz inson va fuqaro huquqlari Deklaratsiyasi (1789-yil);
- Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi (1948-yil);
- Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida xalqaro Pakt (1996-yil) va boshqalar.

Inson huquqlari barcha insonlarning umumbashariy va ajralmas huquqlari bo‘lib, qaysidir davlatga, millatga, fuqarolikka yoki dinga tegishli bo‘lmasada hamma uchun bir xildir. Bu huquqlar Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga asoslangan. Inson Huquqlari xalqaro ko‘lamda amal qilinib, xalqaro qonunlar, dunyoviy va diniy muassasalar, hukumatlar siyosati va nodavlat tashkilotlari tomonidan dunyo siyosatiga juda ham katta ta’sir ko‘rsatadigan doktrinadir. Inson Huquqlari bu insonlarga berilgan intiyoz bo‘lib u dunyoning ko‘pchilik taraqqiy etgan mamlakatlarida qonunlar, konstitutsiyaviy qadriyatlar normalari yoki xalqaro konventsiyalar orqali tan olingan.

Inson huquqlari – insonning davlat bilan munosabatidagi huquqiy maqomini, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohalaridagi imkoniyatlari hamda da’volarini tavsiflovchi tushuncha. Inson huquqlarini erkin va samarali tarzda amalga oshirish fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatning asosiy belgilaridan biridir. Inson huquqlarini mutlaq va nisbiy Inson huquqlariga bo‘lish qabul qilingan. Yashash huquqi, qiynoklarga, zo‘ravonlikka, inson sha’nini yerga uradigan boshqa xil muomalaga yoki

¹ H.B. Boboyev. Inson huquqlari . T. O‘zbekiston. 2017-y. 103-b.

jazoga duchor etilmaslik huquqi, shaxsiy hayotning daxlsizligi huquqi, shaxsiy va oilaviy sir saqlash huquqi, o'z sha'ni hamda yaxshi nomini himoya etish huquqi, vijdon erkinligi va dinga e'tiqod qilish huquqi, shuningdek, sud tomonidan himoya qilinish va odil sudlov huquqi hamda shular bilan bog'liq eng muhim protsessual huquqlar mutlaq inson huquqlari sirasiga kiradi. Qolgan hamma inson huquqlari nisbiy bo'lib, favqulodda yoki harbiy holat tartibi joriy qilingan vaziyatda cheklab yoki to'xtatib qo'yilishi mumkin. Demokratik davlatda mutlaq inson huquqlarini har qanday vaziyatda ham cheklashga yoki vaqtincha to'xtatishga (bekor qilishga) yo'l qo'yilmaydi.²

MUHOKAMA VA NATIJALAR

So'nggi yillarda mamlakatimizda "Inson sha'ni va qadr-qimmatini yo'lida" g'oyasini amalga oshirish borasida keng ko'lamli ishlar bajarilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan 2020-yil 22-iyunda inson huquqlari bo'yicha Milliy strategiya qabul qilinib, natijada inson huquqlarini himoya qilish masalalari yuzasidan xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik yanada faollashdi, inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi xalqaro standartlar milliy qonunchilikka implementatsiya qilindi hamda davlat organlarining huquqni muhofaza qilish faoliyatiga tatbiq etildi.

Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi; qiynoqqa solinishi, zo'rvonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzda tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas (25-26-moddalar). Har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalani va turar joyi daxlsizligi huquqiga; fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi xuquqiga ega (27-29-moddalar). Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi (31-modda).

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda inson huquqlari va erkinliklarining ustunligidan kelib chiqadigan, xalqaro miqyosda qabul qilingan yangi yuridik tamoyil va talablarga asoslangan keng huquqiy muhit vujudga keltirildi. Totalitar tuzumning tazyiq va zo'rvonligidan huquqiy me'yorlar sari keskin burilish yasaldi. Respublika qonunlarini inson huquqlari sohasidagi xalqaro me'yorlar va andozalarga muvofiklashtirish, mazkur sohada Milliy harakat dasturini ishlab chiqish, inson huquqlarini himoya qiladigan muassasalarning yaxlit tizimini barpo etish, inson huquqlariga oid xalqaro shartnomalar va hujjatlarga qo'shilishda davom etib, bu hujjatlar bo'yicha majburiyatlarni bajarishning, barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolar shu hujjatlar talablariga so'zsiz rioya qilishining mexanizmi yaratildi. Inson huquqlari va kafolatlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7,8,9,10-boblarida berilgan

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari, jumladan, shaxsiy huquq va erkinliklari, siyosiy huquqlari, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari, shuningdek, inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari belgilab berilgan (18-52-moddalar). O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar (18-modda). Jumladan, yashash huquqi – har bir insonning uzviy huquqi. Inson hayotiga suiqaasd qilish – eng og'ir jinoyat hisoblanadi (24-modda). Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega.

Shu o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, inson va uning huquqlari qadriyati deb tan olgan yurtimizda inson huquqlarini xalqaro andozalariga mos ravishda amalga oshirilayotganda, inson

² BMT "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" 10.12.1948., O'zbekiston Respublikasi tomonidan 30.09.1991 yilda ratifikatsiya qilingan.

huquqlari va qadr qimmatini oliy ne'mat ekanligini tushunib yetishimiz maqsadga muvofiqdir. Mamlakatimizda inson huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida barcha huquqiy asoslar yaratilgan va kafolatlangan hamda amalga oshirilayotgan islohotlarning barchasi inson huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularni himoyalash kabi oliyjanob maqsadlarga xizmat qilmoqda. Bu esa inson huquqlari sohasida salmoqli yutuqlarni qolga kiritganligidan dalolat beradi. Ayni paytda mamlakatimizda inson huquq va erkinliklarining huquqiy asoslari yaratilishi va uning amalda qo'llanishi hamda kafolatlanishini kuzatuvchi mexanizmlardan yuqorida tilga olib o'tilgan institutlar bilan bir qatorda Oliy sud huzuridagi sud qonunchiligini demokratlashtirish va liberallashtirish hamda sud tizimi mustaqilligini ta'minlash bo'yicha tadqiqot markazi va Adliya vazirligi, Bosh prokuratura, inson huquqlari bo'yicha bo'linmalar va boshqarmalar samarali faoliyat yuritmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T. O'zbekiston. 2023-y. 7-b
2. H.B.Boboyev. Inson huquqlari . T. O'zbekiston. 2017-y. 103-b.
3. BMT "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" 10.12.1948., O'zbekiston Respublikasi tomonidan 30.09.1991 yilda ratifikatsiya qilingan.
4. "Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari" 2022 — 2026 yillar.